

“ASIA ALLIANCE BANK” ATB

Boshqaruvi qarori bilan

(2023 yil 22 noyabrdagi 133-sonli Bayonnomma)

“Tasdiqlangan”

“ASIA ALLIANCE BANK” ATB

Boshqaruvi Raisi

Gimadiyev S.A _____ imzo

muhr

Bir turdag'i chet el valyutasini boshqa turdag'i chet el valyutasiga

konvertatsiya qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish yuzasidan

Ommaviy shartnoma - oferta

Ushbu hujjat “ASIA ALLIANCE BANK” ATBning (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi) rasmiy taklifi (ommaviy oferta) hisoblanadi va yuridik va jismoniy shaxslar (bundan buyon matnda “Mijoz” deb yuritiladi) bilan bir turdag'i chet el valyutasini boshqa turdag'i chet el valyutasiga konvertatsiya qilish bo'yicha bank operatsiyalarini amalga oshirishning standart shartlari va tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (O'zRFK) 369-moddasi 2-bandiga muvofiq, quyida bayon qilingan shartlar qabul qilingan va Bankka Shartnomaga qo'shilish to'g'risida Ariza berilgan taqdirda, ushbu ofertani aktseptlovchi Mijoz Shartnoma tarafiga aylanadi (O'zRFKning 370-moddasi 4-qismiga muvofiq ofertani aktseptlash, ofertada bayon qilingan shartlar bo'yicha shartnoma tuzishga tengdir), Bank va Mijoz esa birgalikda Shartnoma taraflari hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bank Sizga ushbu ommaviy ofertaning matnini diqqat bilan o'qib chiqishni va Bank tariflari bilan tanishib chiqishni taklif qiladi. Agar Siz ofertaning biron-bir bandiga rozi bo'lmasangiz, Bank Sizga xizmatlardan foydalanishni rad etishni taklif qiladi.

1. TERMINOLOGIYA

1.1. **Oferta** - ushbu hujjat “Ommaviy shartnoma - bir turdag'i chet el valyutasini boshqa turdag'i chet el valyutasiga konvertatsiya qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish bo'yicha oferta”,

1.2. **Ofertani aktseptlash** - Mijoz tomonidan ushbu ofertaning 3.1-bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish orqali ofertani to'liq va so'zsiz qabul qilish.

1.3. **Mijoz** - ofertrani qabul qilgan va shu bilan tuzilgan oferta shartnomasi bo'yicha Bank xizmatlarining buyurtmachisi hisoblanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

1.4. **Ommaviy shartnoma – oferta** - bir turdag'i chet el valyutasini boshqa turdag'i chet el valyutasiga konvertatsiya qilish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish yuzasidan, ofertani aktseptlash orqali tuziladigan Bank va Mijoz o'rtaсидаги shartnoma.

1.5. **Qo'shilish to'g'risidagi ariza** - bu yozma ariza bo'lib, unda Mijoz ushbu Shartnomaga-ofertaga qo'shilishga roziliginini aniq ifodalaydi va uning shartlarini aktseptlaydi. Ushbu ariza Mijoz tomonidan ushbu shartnomaning 1-ilovasida belgilangan shakl bo'yicha Bankka taqdim etiladi.

1.6. **Xizmat** - Bank tomonidan bir turdag'i chet el valyutasini boshqa turdag'i chet el valyutasiga konvertatsiya qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.

1.7. **Konversiya operatsiyasi** - bir turdag'i chet el valyutasini boshqa turdag'i chet el valyutasiga sotib olish yoki sotish bo'yicha operatsiya.

1.8. **Spot** - Bank tomonidan “Konversiya operatsiyasini amalga oshirish uchun ariza” qabul qilingan sanadan boshlab 2 (ikki) bank ish kunidan kechiktirmay konversiya operatsiyalarini amalga oshiriladigan hisob-kitob shartlari.

1.9. **Bank ish kuni** - O'zbekiston Respublikasi va ushbu Shartnomaga muvofiq tuzilgan bitimlar bo'yicha hisob-kitoblarda milliy valyutalari qo'llaniladigan davlatlarda ish kuni.

1.10. **Tariflar** - Bank tomonidan bir turdag'i chet el valyutasini boshqa turdag'i chet el valyutasiga konvertatsiya qilish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun Mijozdan undiriladigan Bank tomonidan belgilangan vositacilik haqi summalar.

2. BANK TOMONIDAN XIZMATLARNI TAQDIM ETISHNING UMUMIY SHARTLARI

2.1. Ushbu Ommaviy shartnoma-oferta (bundan buyon matnda "Shartnoma" deb yuritiladi) konversiya operatsiyalarini amalga oshirishda Bank va Mijozning o'zaro munosabatlari tartibi va shartlarini belgilaydi.

2.2. Ushbu xizmat, "Shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi ariza"ni berish va "ASIA ALLIANCE BANK" ATBda hisobvaraqlarni ochish orqali ushbu ofertani aktseptlagan Bank Mijozlariga taqdim etiladi.

2.3. "Shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi ariza"ni berish orqali ushbu Shartnomaga qo'shilgan Mijoz, zarur bo'lganda "Konversiya operatsiyalarini amalga oshirish uchun ariza" berib, bank xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega.

2.4. Mijoz Bankka "Konversiya operatsiyalarini amalga oshirish uchun ariza" taqdim etib, Bankda tegishli depozit hisobvaraqlarida konversiya operatsiyasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan chet el valyutasidagi pul mablag'lari miqdorini va vositachilik haqi to'lovini to'lash uchun milliy valyutadagi pul mablag'lari miqdorini shakllantiradi.

2.5. Mijoz tomonidan ushbu Shartnomaning 2.2., 2.3., 2.4.-bandlarida nazarda tutilgan shartlar bajarilgan taqdirda, Bank tomonidan konversiya operatsiyasi amalga oshiriladi.

3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. Ushbu Shartnomaning shartlari standart shaklda belgilangan va Mijoz tomonidan "Shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi ariza"ni imzolash orqali qabul qilinishi mumkin (1-ilova). Bank tomonidan "Shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi ariza"ning qabul qilinishi, umuman olganda Mijozning ushbu Shartnomaga qo'shilishini anglatadi, Mijoz tomonidan "Shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi ariza" imzolangan va uni Bank tomonidan qabul qilingan kundan boshlab Shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Konversiya operatsiyalari bo'yicha xizmatlar Spot shartlari asosida taqdim etiladi.

3.2. Bank umumiy qabul qilingan bank amaliyotiga amal qilgan holda va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Mijozga bir turdag'i chet el valyutasini boshqa turdag'i chet el valyutasiga konvertatsiya qilish xizmatini taqdim etadi.

3.3. Mijozga ko'rsatiladigan xizmatlar faqat uning "Konversiya operatsiyalarini amalga oshirish uchun ariza"ni bajarish bilan cheklanadi. Bank chet el valyutasini sotib olish/sotish yoki boshqa operatsiyalarning mohiyati yoki maqsadga muvofiqligi bo'yicha tavsiyalar yoki maslahatlar bermaydi.

3.4. Mijoz "Konversiya operatsiyasini amalga oshirish uchun ariza"ni yozma ravishda yoki bank tizimlari orqali taqdim etadi.

3.5. Taqdim etilgan "Konversiya operatsiyasini amalga oshirish uchun ariza" doirasida Bank tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha barcha javobgarliklarni Mijoz olib boradi.

4. KONVERSIYA OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

4.1. Konversiya operatsiyasini amalga oshirish uchun Mijoz bitimning quyidagi tafsilotlari ko'rsatilishi majbiriyligi ko'rsatgan holda, Bankka tegishli "Konversiya operatsiyalarini amalga oshirish uchun ariza"ni taqdim etadi:

- bitimning valyutasi va qarshi valyutasi;
- bitim summasi.

4.2. "Konversiya operatsiyalarini amalga oshirish uchun ariza" Bank tomonidan "Konversiya operatsiyasini amalga oshirish uchun ariza" qabul qilingan kundan boshlab 2 (ikki) bank ish kunidan kechiktirmay ijro etiladi.

4.3. Konversiya operatsiyalari Mijozning arizasiga muvofiq Bank kursi bo'yicha amalga oshiriladi.

4.4. Konversiya bitimini tuzishda va Bank tomonidan ariza bajarilguniga qadar, Mijoz konversiya operatsiyasini amalga oshirish va vositachilik haqini to'lash uchun pul mablag'lari mavjudligini ta'minlashi kerak.

4.5. Bank "Konversiya operatsiyasini amalga oshirish uchun ariza" asosida Mijozning hisobvarag'idan chet el valyutasini o'tkazadi va hisobdan chiqaradi.

4.6. Vositachilik haqini to'lash ushbu Shartnomanining 7-bo`limida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Bank quyidagilarga majbur:

- Mijozning operatsiyalari, bitimlari, hisobvaraqlari va rekvizitlari to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik, bunday ma'lumotlarni qisman oshkor qilishga Mijozning o'zi bevosita ruxsat bergen yoki uning topshirig'ini bajarish zaruriyatidan kelib chiqqan hollar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Shu bilan birga, Mijoz O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofiq, Bank vakolatli organlarga ularning so'rovlarini doirasida Mijozning operatsiyalari, hisobvaraqlari va Mijoz haqidagi boshqa ma'lumotlarni oshkor qilishga majbur bo'lishi mumkinligidan xabardor;

- ushbu Shartnoma bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarish.

5.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

5.2.1. Mijoz tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar bilan bog'liq masalalar bo'yicha zarur tushuntirishlar, ma'lumotnomalar, hujjatlar va ma'lumotlarni olish.

5.2.2. Quyidagi hollarda xizmat ko'rsatishni bir tomonlama to'xtatib turish:

a) Mijoz tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi;

b) Bank tomonidan Shartnoma shartlariga yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq bo`lmagan operatsiyalarni aniqlash;

v) Komplayens bi'yicha qo'shimcha shartlarga muvofiq Mijoz tomonidan berilgan tasdiqlarning bajarilmaganligi (ushbu Shartnomaga 1-ilova).

g) Mijoz tomonidan ushbu Shartnomanining qo'shimcha shartlari va o'zgarishlarini qabul qilmasligi.

5.2.3. Bank Tariflarini bir tomonlama o'zgartirish. Bank Mijozga Tariflarning o'zgarishi to'g'risida o'zgartirishlar kuchga kirishidan 10 bank kunidan kechiktirmay bank bo'linmalari stendlariga va Bankning – www.aab.uz. veb-saytiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish orqali xabardor qiladi.

5.2.4. Bank veb-saytida Shartnomanining yangi tahririni joylashtirish orqali ushbu Shartnoma shartlariga o'zgartirishlar kiritish. Agar Bank 10 (o'n) ish kuni ichida Mijozning bunday o'zgarishlarni qabul qilishdan bosh tortganligini olmasa va Mijoz yangi shartlarda xizmatlardan foydalanishda davom etsa, Shartnomadagi o'zgarishlar Mijoz tomonidan qabul

qilingan, deb hisoblanadi.

5.2.5. Jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida Bank Mijozdan mijozni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi va hisobvaraq bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarini tasdiqllovchi ma'lumot va hujjatlarni taqdim etishni talab qilish huquqiga ega.

5.2.6. Ushbu Shartnomani bekor qilishdan kamida 10 (o'n) ish kuni oldin bu haqda Mijozni yozma ravishda xabardor qilgan holda, uni bekor qilish, bunda Mijoz ko'rsatilgan bank xizmatlari uchun Bankka to'lanadigan haqni to'lashi va Bank oldidagi barcha mavjud majburiyatlarni to'lashi shart.

6. MIJOZNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Mijoz quyidagilarga majbur:

6.1.1. Bankning talabiga ko'ra Mijoz tomonidan o'tkaziladigan operatsiyalar bilan bog'liq masalalar bo'yicha zarur tushuntirishlar, ma'lumotnomalar, hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etsin;

6.1.2. Ushbu Shartnoma shartlari bajarilishi munosabati bilan unga ma'lum bo'lган har qanday ma'lumotni Bankning yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga bermaslik;

6.1.3. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda, Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq xizmat uchun Bankka vositachilik haqini to'lash, buning uchun hisobvaraqlar(dagi pul mablag'lari qoldig'ini Bankning vositachilik haqini to'lash uchun yetarli darajada saqlab turish;

6.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

6.2.1. zarur hollarda Bankka "Konversiya operatsiyalarini amalga oshirish uchun arizalar" taqdim etish orqali bank xizmatlaridan foydalanish;

6.2.2. belgilangan tartibda operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

6.2.3. Shartnomani bekor qilish uchun ariza berish orqali ushbu Shartnomani bekor qilish;

6.3. Shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi arizani imzolash orqali, Mijoz quyidagilarni tasdiqlaydi-ki, ya`ni:

6.3.1. ushbu Shartnoma shartlari bilan tanishib chiqqanligini va rozi ekanligini;

6.3.2. u Bank Tariflari, "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida konversiya operatsiyalari bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibi, konversiya operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo`lgan hujjatlar ro'yxati, shuningdek Tomonlarning huquqlari va majburiyatlarini to'g'risida ma'lumot olganligini.

7. VOSITACHILIK HAQINI TO'LASH TARTIBI

7.1. Xizmat uchun vositachilik haqi miqdori Bank Tariflari bilan belgilanadi.

7.2. Vosinachilik haqini to'lash Mijoz tomonidan mustaqil ravishda yoki Bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun zarur bo`lgan summani aktseptsiz tartibda Mijozning hisobvarag'i(lari)dan hisobdan chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

"Shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi ariza"ni imzolash orqali Mijoz Bankka Mijozning Bankda ochilgan bank hisobvaraqlarini to'g'ridan-to'g'ri debet qilish orqali, Mijozning har qanday qo'shimcha rozilgisiz, Bankning tasdiqlangan Tariflariga muvofiq konversiya operatsiyasini o'tkazish uchun vositachilik haqini hisobdan chiqarish huquqini beradi.

8. FORS-MAJOR HOLATLARI

8.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bunday bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik yengib bo`lmas kuch holatlari (fors-major holatlari) natijasida yuzaga kelgan bo'lsa.

8.2. Yengib bo`lmas kuch holatlari deganda, Tomonlar ushbu Shartnoma imzolangandan keyin favqulodda xarakterdagи kutilmagan va oldini olish mumkin bo`lmagan hodisalar

natijasida yuzaga kelgan holatlar tushuniladi, masalan: urushlar va harbiy harakatlar, tabiiy ofatlar, Bank tizimlarining ishlashidagi texnik nosozliklar, O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi va/yoki ijro etuvchi hokimiyat organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Tomonlarning ushbu Shartnoma predmetiga bevosita aloqador faoliyatini taqiqlovchi yoki chekllovchi harakatlari.

8.3. Ushbu Shartnomaning 8.2-bandida ko`rsatilgan holatlar tufayli ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish mumkin emasligi yuzaga kelgan Tomon boshqa Tomonni kechiktirmsandan yozma ravishda xabardor qilishi va boshqa Tomonning talabiga binoan fors-major holatlarining boshlanishi va/yoki tugatilishini tasdiqllovchi dalillarni taqdim etishi kerak. Ko`rsatilgan holatlarning yuzaga kelishi va davomiyligining isboti bo`lib, vakolatli organ tomonidan berilgan yozma hujjatlar xizmat qiladi.

8.4. 8.2-bandda nazarda tutilgan holatlarda, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati bunday holatlar va ularning oqibatlari amal qiladigan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

8.5. Agar yengib bo`lmas kuch holatlari ketma-ket 30 kalendar kundan ortiq davom etsa, tomonlarning har biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bank ushbu holatda shartnomani bekor qiladi va shartnomani bekor qilish to'g'risida tegishli bildirishnomani Bank bo`linmalaridagi stendlarga, Bankning - www.aab.uz veb-saytiga joylashtiradi.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI

9.1. Shartnoma Mijoz tomonidan "Shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi ariza" imzolangan va uni Bank tomonidan qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi va muddatsiz hisoblanadi.

9.2. Shartnoma Mijozning arizasiga binoan istalgan vaqtida Shartnomani bekor qilish to'g'risida ariza berish orqali bekor qilinishi mumkin.

Agar Mijoz ushbu Shartnomaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan rozi bo`lmasa, Shartnoma Mijozning tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin.

9.3. Shartnoma quyidagi hollarda Bank tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi mumkin:

- Mijoz tomonidan ushbu Shartnoma shartlari buzilganda;
- Bank Mijozlarga bir turdag'i chet el valyutasini boshqa turdag'i chet el valyutasiga konvertatsiya qilish bo'yicha xizmatlar ko`rsatishni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilganda.

10. JAVOBGARLIK VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

10.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan miqdorda va tartibda javobgar bo`ladilar.

10.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha nizolar muzokaralar yo`li bilan hal qilinadi. Agar kelishuvga erishilmasa, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq vakolatli sudlarda ko'rib chiqilishi lozim.

11. BOSHQA SHARTLAR

11.1. Ushbu Shartnoma bilat tartibga solinmagan masalalar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

12. BANKNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI

Bank: «ASIA ALLIANCE BANK» ATB

Manzil: 100047, Toshkent sh., Maxtumkuli ko`chasi, 2 A-uy

Bank rekvizitlari:

SWIFT: ASACUZ22, STIR: 207018693, XXTUT: 96120

*Bir turdag'i chet el valyutasini boshqa turdag'i chet el valyutasiga
konvertatsiya qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish yuzasidan
Ommaviy shartnoma – ofertaga
1-Illova*

**Bir turdag'i chet el valyutasini boshqa turdag'i chet el valyutasiga konvertatsiya
qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish yuzasidan Ommaviy shartnoma – ofertaga
qo'shilish to'g'risida ariza**

Ariza beruvchining nomi _____ (yuridik shaxs)

Ariza beruvchining F.I.O _____ (jismoniy shaxs)

Ushbu ariza bilan, men Bankning www.aab.uz. veb - saytida e'lon qilingan Bir turdag'i chet el valyutasini boshqa turdag'i chet el valyutasiga konvertatsiya qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish yuzasidan Ommaviy shartnoma-oferta shartlari bilan tanishganimni tasdiqlayman, ularga roziman va umuman olganda unga qo'shilaman, shuningdek kelajakda Bankka nisbatan hech qanday da'voyim bo'lmaydi va Bank Tariflariga muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar uchun vositachilik haqi summalarini aktseptsiz hisobdan chiqarishga rozilik beraman.

Yuridik manzil va rekvizitlar (yuridik shaxs):

Rahbar (imzo) M.O`.

Pasport ma'lumotlari va manzili: (jismoniy shaxs):

Imzo

KOMPLAYENS BO`YICHA QO`SHIMCHA SHARTLAR

1. Maqsad va ta`riflar

1.1. Ushbu Komplayens bo`yicha qo`shimcha shartlarning maqsadi (**bundan buyon matnda “Qo`shimcha shartlar” deb yuritiladi**) Shartnoma taraflari uchun “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish” (bundan buyon matnda “**JDL/TM/OQTMQK**” deb yuritiladi), “Poraxo'rlikka va korruptsiyaga qarshi kurashish” (bundan buyon matnda “**PKQK**” deb yuritiladi), “Sanktsiyalar va eksport nazorati choralari” (bundan buyon matnda “**Sanktsiyalar**” deb yuritiladi) sohalarida yuzaga keladigan komplayens tavakkalchiliklarni minimallashtirish hisoblanadi.

Jinoiy daromadlarni leallashtirish - jinoyat sodir etish natijasida olingan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkka egalik qilish, ulardan foydalanish yoki tasarruf etishning qonuniy shaklini berish.

Terrorizmni moliyalashtirish - bu terrorchilarga va terrorchilik faoliyatiga mablag`lar taqdim etish yoki moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Korruptsiya - shaxs (bank xodimlari)ning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlari yoki o`zqa shaxslarning manfaatlarini ko`zlab moddiy yoki nomoddiy naf olishi uchun qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi.

Poraxo'rlik - bu oluvchiga ta'sir o'tkazish va undan qonunga xilof xatti-harakatlarga erishish maqsadida qimmatliklarni berish, va'da qilish yoki ruxsat berish, olish yoki o'tkazish yoki oluvchining nafni qabul qilishi qonunga xilof bo'lgan vaziyat.

Sanktsiyalar deganda, tegishli yurisdiktsiya davlat organlari tomonidan joriy qilingan, yozib qo`yilgan yoki amalga kiritilgan iqtisodiy yoki moliyaviy cheklowlarni yoki savdo embargosini anglatadi.

Sanktsiyalar ro'yxati - bu sanktsiyalar ostida bo'lgan jismoniy va/yoki yuridik shaxslar, hududlar, mamlakatlar, tovarlar va xizmatlarning reestri.

Eksport nazorati deganda tovarlar, texnologiyalar, texnik ma'lumotlar, dasturiy ta'minot yoki xizmatlarni import qilish, eksport qilish, reeksport qilish, transferi, chiqarish, jo'natish, uzatish yoki har qanday taqdim etish yoki qabul qilishni tartibga solish bilan bog'liq qonunlar yoki

huquqiy hujjatlar, shiningdek, hukumat organlari tomonidan qo'llaniladigan va amalga kiritilgan shunga o'xshash xususiyatdagi har qanday qonunlar yoki huquqiy hujjatlar tushuniladi.

Sanktsiya tavakkalchiliklari - bu bank tranzaksiya xizmatlari sub'ekti, uning ta'sischisi, benefitsiari yoki nazorat qiluvchi shaxsga nisbatan amerika, yevropa sanktsiyalar yoki davlatlar va xalqaro yurisdiktsiyalar tomonidan qabul qilingan boshqa sanktsiyalarning joriy etilishi ehtimoli.

Bloklangan shaxs deganda, (a) mol-mulki yoki mulkka bo'lgan huquqi har qanday sanktsiyalar bilan bloklangan, (b) sanktsiyalar bo'yicha aktivlarni muzlatish ob'ekti sifatida belgilangan, (v) tegishli sanktsiyalar yoki eksport nazorati chorralari bo'yicha bitimlar taqilangan yoki (g) har qanday bunday shaxsga tegishli yoki nazorat qilinadigan har qanday shaxsni anglatadi.

Moliyaviy firibgarlik – qonunga xi洛f ravishda boyitish maqsadida aldash, ishonchni suiste'mol qilish va boshqa manipulyatsiyalar orqali pul muomalasi sohasidagi noqonuniy xattiharakatlarni amalga oshirish.

Mijoz deganda, unga ushbu komplayens qoidalari qo'llaniladigan, “ASIA ALLIANCE BANK” ATB (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi) bilan tuzilgan Shartnomada belgilangan tomon, yuridik yoki xususiy shaxsni anglatadi.

Affillangan shaxs - mijozning faoliyatiga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Korrespondent-bank – “ASIA ALLIANCE BANK” ATB bilan ishbilarmonlik munosabatlarida bo'lgan va vakillik shartnomasi asosida Bankning topshirig`iga binoan to'lovlar, hisob-kitoblar va boshqa operatsiyalarni bajaruvchi bank.

2. Huquqiy asoslar.

2.1. Ushbu Qo'shimcha shartlar doirasida Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qiladi va xalqaro standartlarga amal qiladi.

2.2. Mahalliy talablarga quyidagi hujjatlar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi.
- “Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonun.
- “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonun.
- 2017-yil 23-maydagi 2886-sonli “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari”.
- JDL/TM/OQTMQK, PKQK va Sanktsiyalar sohalarida Bankning tartib-taomillari.

2.3. Xalqaro standartlarga quyidagi hujjatlar kiradi:

- Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo`yicha moliyaviy chora-tadbirlarni ishlab chiqish guruhiining tavsiyalari¹ (ingl. Financial Action Task Force on Money Laundering — FATF).
- ISO 37001:2016 - korrupsiyaga qarshi samarali tizimni tashkil etishda xalqaro qurilish modelini o`z ichiga olgan xalqaro standart².
- BMTning Sanktsiyalar ro`yxati, OFAC (AQSH Moliya vazirligining xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi), EI (Evropa Ittifoqi, Evropa qo`mitasi), UK (Birlashgan Qirollik, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya) va boshqa xorijiy davlatlar³ va xalqaro tashkilotlarning vakolatli organlari, shuningdek, boshqa rasmiy ravishda e`lon qilingan sektoral sanktsiyalar va/yoki eksport nazorati ro`yxatlari.
- JDL/TM/OQTMQK, PKQK, Sanktsiyalar sohasidagi Bank vakillik banklarining talablari.

3. Mijozning tasdig`i.

3.1. Mijoz Bank bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishda Bankni ushbu Qo`shimcha shartlarning 2.2-bandida ko`rsatilgan Qonunchilik hujjatlariga, shuningdek 2.3-bandida ko`rsatilgan xalqaro standartlarga rioya qilishini tasdiqlaydi, xususan, Mijoz:

- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida jinoiy daromadlarni legallashtirishni va terrorizmni moliyalashtirishni amalga oshirmaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida moliyaviy firibgarlikda ishtirok etmaydi;
- Bank xodimiga pora taklif qilmaydi, pora bermaydi, Bank xodimidan pora olmaydi;
- Bank nomidan uchinchi shaxslarga pora taklif qilmaydi, bermaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida sanktsiyalar ro`yxatida bo`lgan tomon bilan kelishuvlar tuzmaydi, bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida affillangan shaxsi sanktsiyalar ro`yxatida bo`lgan tomon bilan kelishuvlar tuzmaydi, bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- eksport nazorati ostida bo`lgan tovarlar va xizmatlar bo`yicha uchinchi shaxslar bilan kelishuvlar tuzmaydi, bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- sanktsiyalar ro`yxatida bo`lgan banklar (shu jumladan, ularning affillangan shaxslari) orqali bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- shartnoma munosabatlari doirasida amalga oshirilayotgan tranzaktsiyalar, kontraktlar, operatsiyalar qatnashchilari, tovarlar va xizmatlar hamda mablag'larning harakati to`g`risidagi hujjatlar va ma'lumotlarning to`liq va oshkora taqdim etilishini ta'minlaydi;
- O`zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga va xalqaro standartlarga zid bo`lgan har qanday qonunga xi洛f operatsiyalarni amalga oshirish niyatida emas;
- Mijozning ushbu Qo`shimcha shartga rioya qilmasligi natijasida kelib chiqadigan zararlar, chiqimlar, yo`qotishlar, majburiyatlar, jarimalar, peniyalar yoki xarajatlarni (shu jumladan advokatlik xarajatlari va gonorarlar) qoplash uchun javobgarlikdan Bankni ozod qiladi.

¹ <https://www.fatf-gafi.org/>

² <https://www.iso.org/rw/iso-37001-anti-bribery-management.html>

³ G7 mamlakatlari Frantsiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Italiya va Kanada hisoblanadi.

4. Bankning huquqlari

- 4.1. Mijoz ushbu Qo`shimcha shartning 3-bandи talablarini buzgan taqdirda, Bank Mijoz bilan shartnomaviy munosabatlarni bir tomonlama bekor qilishga haqli.
- 4.2. Vakillik banklar tomonidan Bankka nisbatan sanktsiyalar yoki boshqa cheklov choralarini qo'llash xavfi yuzaga kelsa, Bank hisobvaraq ochishni va bank operatsiyalarini amalga oshirishni rad etish huquqiga ega.